

Ona yurti - oltin beshiging

TONG Yulduzi

№35 (66420)
2003 yil
8 sentabr
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan



ERK YO'LI

Ulug' xalq dilida ulug' niyatlar bisyor.
Jumladan, mening ham. O'tgan yili
«Iqtidorli bolalar» Respublika anjumanida
ishtirok etdim va birinchi o'rinni oldim.
Fanlardan adabiyotga, tarixga qiziqaman.
She'r va maqolalarim gazetalarda chop
etilgan. Tikuvchilik va kashtachilik ham eng
sevimli mashg'ulotlarimdan biri. Istiqlolimizning 12
yilligiga «Yangi asr avlodi» nashriyoti «Erk yo'li»
nomli she'riy to'plamimni chop etish arafasida.
Mening bu yutuqlarimda, albatta ustozlarimning
mehnatlari katta. Ayniqsa, ona tili va adabiyot
o'qituvchisi Ra'noxon opa Isoqovadan
minnatdorman.



Ustozim Ra'noxon Isoqova va men.

Qadim Turonimda esdi bir shamol,
Kishanlar uzildi, hayratdan til lol.
Yurtim osmonida balqdi-yu, hilol
Basharga erk bo'lib keldi istiqlo.

Haq so'zla, hur ko'zla, qo'llari baland,
«Erk» dagi g'oyasin qo'ydi sarbaland.
Vatan, sening uchun jonlar sadaqa
Hur erkin yashaysan, zog'lar bermas pand.

Erk tug'in asrovchi qalqonlaring bor,
Yovlarni yo'latmas posbonlaring bor.
Erk yo'li - Haq yo'li, Alloh madadkor,
Haq uchun jon tikkan arslonlaring bor.

Fikr ozod, qalb ozod, endi ozod ruh,
Ko'ngillar oboddir, yo'qdir g'am, anduh.
Qalblarda hayajon, dillarda shukuh
Qo'llarda hilpirar muqaddas bir tug'.

Yo'l ravon, elning ham maqsadi aniq,
Ong tiniq, suv ichar daryolar tiniq.
Dillar shod, qolmadi hech ko'ngli siniq
Qafasda edi ruh, qanchalar biqiq..

Ulug' xalq dilida ulug' bir niyat
Humoqush ramzida keldi Hurriyat.
Elim, Boshing egmagin, ko'targin qaddi-doling,
Qoshu-qabog'ing uzra asra hur- Istiqloling.



O'ZBEKISTON

Dunyo ichra bo'stonlar mo'l, chamanlar ko'p,
Boychiboru Qora qashqa, Samanlar ko'p.
Yurtlar ichra shaharlar ko'p, tumanlar ko'p,
Faqat bitta, bittagina O'zbekiston!

To'siqlarni uzdi hurlik istiqloli,
Kelajagi porloq, yoshlar baxt- iqboli.
Yashnagaydir to'kin elning istiqboli
Faqat bitta, yagonadir O'zbekiston.

Muxtasar YO'LDOSHEVA,
Namangan viloyati, Kosonsoy tumanidagi
47-maktabning
9-sinf o'quvchisi.



MEHNAT HURMATI

Ba'zan oddiy narsalarni e'tiborsiz qoldiramiz, kimdir
chetdan kelib eslatgandan so'nggina ishga kirishamiz. Misol
uchun, maktabimiz Abdulla Ismatov nomi bilan atalishini
yaxshi bilamiz, shu nomni tez-tez tilga olamiz. Vatanimiz
Mustaqilligining 12 yilligi va shahidlar xotirasini yod etish
kuni munosabati bilan maktabimiz direktori Valijon aka
Umarovning maslahatlari bilan Abdulla Ismatovning xonadonlarini
ziyosat qildik. U kishining rafiqalari
Nazira aya va oilaning boshqa a'zolari bizni ochiq
chehra bilan kutib olishdi. O'qituvchilar, o'quvchilar,
mahalla faollari va oila a'zolari Abdulla aka Ismatovning
shaxsi, o'qituvchilik faoliyati, o'ta jonkuyar va o'z
kasbining fidoyisi ekanligi haqida xotiralarga berilishdi. O'rta
maktabni ayni urush qizigan 1943 yili bitirgan va shundan
so'ng o'zining barcha faoliyati, sa'y-harakati va kuch-
g'ayratini bolalarga ta'lim -tarbiya berish yo'liga safarbar
etgan Abdulla aka Ismatov 55 yil mobaynida ushbu
maktabda biologiyadan dars berganlar. «O'zbekiston xalq
maorifi a'lochisi», «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
o'qituvchi» faxriy unvonlari ham mana shu ko'p yillik
samarali mehnatning timsoliga aylangan.

Mana shu tadbir bahonasida biz o'quvchilar maktabimiz
nomi qo'yilgan aziz insonning shaxsi va hayot yo'li
to'g'risida ko'proq ma'lumotga ega bo'ldik. Ustoz izidan
borish, uni yo'qlab, yo'llaridan gul-chechaklar terish
naqadar yaxshi!

Navro'za QODIROVA,
Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumanidagi
81-maktab o'quvchisi.

75 YOSHLI MAKTABGA 75 KUNDA YANGI BINO

Zarkentlik bolajonlarning quvonchi cheksiz. Chunki ular yangi o'quv yilini yangi maktab
binosida qarshilamoqda. Toshkent viloyatining Parkent tumanidagi 14-o'rta ta'lim maktabining
fayzga to'la hovlisi erta tongdan tashrif buyurgan sobiq o'quvchilar bilan yanada charog'on
bo'lib ketdi. 1 sentabr qo'ng'irog'i avvalgilardan ko'ra jozibalibroq jarangladi.
Chunki yangi binoda ovoz ham jaranglab eshitiladi-da. Bolajonlarni
o'z bag'riga olgan ko'rkam maktab binosi hokimlik tomonidan
ajratilgan 10 million so'mlik maktab jihozlari bilan boyidi.

Aslida-ku, «ko'pdan quyon qochib qutulmas», degan maqolga amal qilgan hamqishloqlar
bu maktabni juda tez, 75 kunda hashar bilan qurib bitirishdi. Massallig'i bo'lsa osh ham erta
pishadi, axir. 2002-2003 o'quv yili tugash kunlarda so'nggi qo'ng'iroqqa Zarkent shirkat
xo'jaligi raisi, O'zbekiston Qahramoni Tojiboy aka Rizayev ham taklif qilingandi. Binosi
qurilganligiga 75 yil to'lgani chindan ham maktab eski ekanligining guvohi bo'lgan tadbirkor
rahbar o'sha kuni o'quvchi va o'qituvchilarga qarata: «Albatta yangi o'quv yilini yangi
maktab binosida boshlaysizlar», - deya va'da berib yubordi. Ha, so'ziga sodiq qahramon yana
qahramonlik ko'rsatdi. Zarkent



qishlog'i aholisi shu kunlarda yangi
maktab binosida bilimlar kunini
tantana qilmoqda. O'quvchilar keng
va yorug' sinf xonalari, barcha o'quv
qurollariga ega bo'lgan yangi
maktabni ko'rib, o'z xomiyalaridan
cheksiz minnatdor ekanliklarini
bayon qilishmoqda. O'zbekistonimiz
o'zining birinchi muchal to'yi
nishonlanayotgan kunlarda yangi
maktab binosiga qadam ranjida qilish
naqadar hayajonli. Chunki bu
yerdan bilimlar sari yo'l boshlanadi.
Bunyodkorlik, yaratish va
yashnatishga olg'a qadam tashlanadi.

Rohila ISMATILAYEVA.
Suratkash: V.Xoliqov.



MENGA SO'Z BERING

Vatanni sevish faqat ona yer go'zalligini his etishning o'zi emas. Uni chuqur his etish uchun zaminga vujud-vujuding bilan singib ketishing zarur. Aytaylik, obdon ter to'kib, mehnat qilib, g'alla o'stirding. Mehnat qilib yegan noning naqadar shirin-a?




Shahar bino qilib,
yangi yo'l
qurding. Yana o'z
shahring, ona
vataning, o'z
ko'chalarida
emin-erkin yurishing



o'zgacha...

O'z zamingni

himoya qila turib, Vatan o'g'lon, ortingda ona yer, hokim tuproqni tuyganing rost bo'lsin. Buyuk istiqlol tufayli orzu-armonlariga yetgan otajon, yorug' kunlar yetib kelganiga shukronalar qilgan onajon, bolajoning endi ozod, erkin nafas olaver. Aziz O'zbekistonimizning mag'ribidan mashrig'igacha yangilanish, bunyodkorlik, yaratuvchanlik... Istiqlol yillarida Qoraqalpog'iston deb atalmish go'zal diyorda ishlab chiqarayotgan kiyim-kechaklarni kiyib,



turkiylarning faxri Mirzo Ulug'bek haykalining o'rnatilishini tomosha qilib, 550 yilligini tantana qilgan Nukus ko'chalarida xayolan kezib, ruhim yangilanadi, ko'nglim charog'on, ma'rifat shukuhiga to'ladi.

O'zimning aziz shahrimni aytmasizmi? Mir Alisher Navoiy hazratlari nomi bilan atalgan yurtim hunarmandlari bilimdonlar o'lkasi.

Yer osti va yer usti foydali qazilmalariga boyligi istiqlol yillarida yanada aniqroq e'tirof etildi. Shahrimizda Navoiy xiyoboni tashkil etildi va unga xalqimizning hurmat ehtiromi ila mahobatli haykali o'rnatildi...

Sport sohasida deysizmi, o'tmish saboqlari-yu kelajagi buyukligi haqidami, sizga soatlab gapirishim mumkin. Serquyosh osmoni, unumdor tuprog'i, va eng muhimi, mehnatkash va tomirilarida ulug' ajdodlarimizning qoni mavj urib turgan insonlari omon bo'lsin mamlakatimning!

Jahongir SHIRINOV,

Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi 74-o'rta maktabning
7-sinf o'quvchisi.



PIRLAR MADADKOR O'LKAM

Ilk harfni o'rgatgan ustozimdan so'z ochaymi?
To'g'ri yo'lni ko'rsatgan ota- onam boshiga gullar sochaymi?
Mehringiz quyosh ekan, ilmga yo'ldosh ekan,
aziz qadrdonlarim!

Orzularim cheksiz, chegarasiz.

Tuprogi tillo, Alloh siylagan,

pirilar madadkor - Bo'kamda baxtli
yashayman.

Va albatta BAXTU TAXTLI bo'laman.

Chunki tinchlik qushi parvoz etar osmonimda,
Qora dog'lar yo'qdir endi bo'stonimda.

Iymonim sog', salomat,

Biz bilandir SAODAT!

Munira TURDIMATOVA,

Toshkent viloyati, Bekobod shahridagi, 12-maktabning 8- «B» sinf
o'quvchisi.

Baxt

BUVISI BOR QIZLAR

Mening buvijonim yetmishdan oshib, sakson bilan yuzlashayotgan bo'lsalar ham yosh qizlar bilan yosh qizlardek, kekka dugonalari bilan ularga o'xshab gaplashadilar. Uyimizga dugonalari Munavvar xola tez- tez kelib turadi. Buvijonim oldiga kulib chiqaman va shirinliklarimni oppoq Sen yoshsan, deb meni choynak va piyolalar tozaligiga alohida e'tibor beraman. Dasturxon atrofida chiroyli o'tirish kerak. Tiralib, suyanib yoki yotib ovqatlanuvchilar ham bor ekan. Tavba, buvijonim aytalar hayron qolaman. Axir ovqatlanayotganda xunuk o'tirib bo'ladimi? Inson taom yeyish madaniyatini bilishi bilan inson-ku! O'ng qo'lda choy uzatib, non ushatishni ham buvijonimdan o'rganganman. Ayniqsa, ishni o'zimga e'tibor berishdan boshlashim kerak. Chunki buvijonim uyda uychi kiyimda yuringlar, deb tergap turadilar. Sochlaringizni turmaklab, ro'mol o'rang yoki do'ppi kiying, sipo kiyinib, qo'l va oyoqlaringizni yashirib yuring. Ish qilganingizda soch tolalaringiz to'zg'ib osh- ovqatga tushib ketmasin,- deyдилar. O'zlari mehmon bilan gaplashib o'tirgan bo'ladilar, ammo bizning har bir xatti-harakatimizni sezib, "ko'z kompyuter"lariga joylab turadilar. Buvijonimning xotiralari juda yaxshi. Hatto o'rtoqlarimning telefon raqamlarini ham yozib olishga erinib, ularga aytib qo'yaman. Ular esa istagan paytimda darrov aytib beradilar. Ha, aytgandek, buvijonimning "ko'z kompyuter"lariga ishqilib yomon holatda tushmayin-da. Mehmon ketgach, toza dakki beradilar. Urmaydilar, so'kmaydilar, hammasini o'zim qilaqolay deb, qo'limizdagi ishimizni olib jazoimizni beradilar. Biz qilishimiz kerak bo'lgan ishni o'zlari qilib tursalar qiynalamiz-da. Iloyim, mingga kiring buvijon, buvisi bor qizlar fahm -farosatli bo'lib o'sadi.



"Tong yulduzi"ga



kompyuter"lariga ishqilib yomon holatda tushmayin-da. Mehmon ketgach, toza dakki beradilar. Urmaydilar, so'kmaydilar, hammasini o'zim qilaqolay deb, qo'limizdagi ishimizni olib jazoimizni beradilar. Biz qilishimiz kerak bo'lgan ishni o'zlari qilib tursalar qiynalamiz-da. Iloyim, mingga kiring buvijon, buvisi bor qizlar fahm -farosatli bo'lib o'sadi.

Gulnora MURODOVA,

Yunusobod tumanidagi 273-maktabning 3-sinf o'quvchisi.

GO'ZALLIKKA KON, QO'SHIQQA MAKON

Men yozgi ta'tilda onam va ukalarim bilan birgalikda Shoximardonga bordim. Shoximardon juda go'zal va so'lim maskan ekan. Salqin tog' havosi ufurib, qushlar shodon sayrab turisharkan. Tog'lar va bog'lar meni hayajonga soldi. Qo'shiq kuylab, she'r yodlab yurdim. Mana ta'til davri ham tugab, qadrdon maktab bag'riga qaytdik. Endi ustozlarimiz berayotgan saboqlarini jon qulog'imiz bilan tinglaymiz. O'qish, matematika, rasm fanlarini juda yaxshi ko'raman. Uy vazifalarini o'z vaqtida bajarib, doimo a'lo o'qishga harakat qilaman. O'zim qo'shiqlar kuylashni yoqtiraman. Onajonim rahbarligida ko'plab qo'shiqlar kuylashni o'rgandim. «Kamalak», «Onajon» kabi bir necha qo'shiqlarni bemalol kuylay olaman. Shu gullarga kon, qo'shiqlarga makon ona O'zbekistonda yashayotganimdan cheksiz faxrlanaman.

Shirinmoh

INOMZODA,

Toshkent shahar,

Bektemir tumanidagi

291-maktabning 4-sinf

o'quvchisi.

BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

Siz «Tong yulduzi» sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi... Maqsadimiz, bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezar.



Otalari yozadi

Nima bo'ldi-yu, Charos uchqunday sachraydigan, tantiq qiz bo'lib qoldi. O'ziga yoqmaydigan bir og'iz gapni ham ko'tarmaydi. Agar buvisi Lola xola tartibga chaqirsa, qo'lidagi yeb turgan nonini otib yuborish odatini chiqardi. Hozir ham shunday bo'ldi. Lola xola unga:

- Charos qizim, nonni bir yerda o'tirib yegin. Uvog'i to'kilsa uvol bo'ladi,-dedi.

Charos esa buvisiga qarab bir chimirildi-da:

- Fu, uvol bo'lsa uvol bo'laversin. Menga nima!-dedi-da qo'lidagi nonini hovliga qarab otib yubordi. Opasining bu qilg'idan ukasi O'ktam ham hayron bo'lib, buvisiga qaradi.

- O'ktamjon o'g'lim, o'zing aqlli bolasan-da. Borib nonni olib kel. Charos katta bo'lganda Nuri xolaga o'xshab qoladi,- dedi Lola xola.

O'ktam zing'illab borib, nonni olib kelib, buvisiga berdi. Lola xola nonni puf-puflab, peshonasiga tegizdi-da, dasturxonga qo'ydi. Buvisining bu ishini qovog'ini osiltirgancha kuzatib turgan Charos o'sha non bo'lagini olib, yana hovliga otmoqchi bo'ldi. Buvisi qo'ldan ushlab qoldi-da:

- Nima, sen ham ko'r

bo'lmoqchimisani?

- dedi.

- Ko'r bo'lmayman!

- Nuri xola ham bolaligida

ko'r bo'lmayman, deb non, ovqatlarni uvol qilgan. Ularni chiqindilar ichiga tashlagan.

Mana endi ko'zi ko'rmay qoldi.

- Qo'shni ko'chadagi nevarasi yetaklab yuradigan kampir-a?- dedi O'ktam.

- Ha, o'sha Nuri xola.

- Aldamay qo'yaqoling, buvi,- dedi hamon jahlidan tushmagan Charos.- Ko'zlari ochiq-ku, o'sha kampirning.

- Ha, ko'zlari ochiq. Lekin narsalarni ko'rmaydi.

- Siz qayerdan bilasiz, buvijon?- so'radi O'ktam.

Bolalikda u bilan birga o'sganmiz-da. U tashlagan nonlarni men olardim, to'kilgan uvoqlarni terib, qushlarga berardim.

- Ovqatning ham tagida qoldirarmidi?

- Ha, ovqatning ham doim tagida

qoldirardi.

- Men ovqatimning tagida qoldirmay, kosani ham yalab qo'yaman-a, buvijon, sizga o'xshab?

-Sen aqlli bolamsan-da, O'ktamjon.

Bu gap-so'zlarni eshitgan Charos biroz hovuridan tushganday bo'ldi. U ham ko'pincha ovqatning tagida


qoldirardi-da. Hozir ko'zi ochiq bo'lsa ham Nuri xola hech narsani nima uchun ko'rmasligini bilib olganday bo'ldi. Yoshli ko'zlarini mushti bilan ishqaladi. Keyin muloyimlik bilan buvisiga qaradi. Buni zimdan kuzatib turgan Lola xola:

- Nonga sariq yog' bilan murabbo surkab beraymi, qizim?- deb so'radi.

- Mayli, buvijon. Uvog'ini to'kmay, o'tirib yeyman,- dedi Charos.

Karim RAHIM.

U V O L



Ey, farzand, bilg'inki, donishmandlar uyquni kichik o'lim debdurlar. Ul jihatdin o'lg'on kishi uxlog'on

RIZQ KAM BO'LUR

kishi bila barobardur va bu ikkovining ham hech biri olamdin ogoh emaslar.

Ko'p uxlamog' yomon odatdurki, badanni sust va tabiatni vayron qilur, yuzning suratin boshqa holga aylantirur. Olti narsa kishiga

Aqlli bolaga mol ne kerak?

Aqlli ish - qanotli qush.

yetishsa, uning yuz suratini o'zgartiradi: biri darhol muyassar bo'lg'on shodlik, biri nogoh yetishg'on g'am, biri qahr, biri uyqu, biri mastlik va qarilikdir. Odam qari bo'lsa surati o'zgaradi, ammo bu o'zgarish boshqa turga kiradi. Ammo kishi uxlag'on vaqtda tirik yoki o'lik deb hukm yo'qdir,

Aqlli pakana ahmoq darozdan yaxshi.

Aqllining oti ham horimas,

To'ni ham to'zimas.

uxlag'on kishiga ham hukm yo'qdir.

Ko'p uxlash ziyon qilg'ondek, uxlamaslik ham zarar qilur. Masalan, agar bir odamni yetmish ikki soat, ya'ni uch kecha-kunduz jo'rttaga uxlatmasdin olib yurilsa, to'satdan o'lim xavfi tug'iladi. Ammo hamma ishning o'ichovi bordir. Chunki kecha-kunduz yigirma to'rt soat bo'lur. Shundan sakkiz soatini ibodatga, sakkiz soatini ishratga va ruhni toza qilmoqqa va sakkiz soatini mana shu o'n olti soat davomida qiynalg'on

Achchiq o'yin shirin turmushni buzadi.

Achchig'ing chiqsa ham, aqling qochmasin.

a'zolarga orom bermakka tayin etmoq kerakdur, toki a'zo harakat takallufidin osuda bo'lsin. Ammo johillar ushbu yigirma to'rt soatning yarmin uyqu birla o'tkarib va yarmida bedor bo'lurlar. Yalqovlar ikki hissasida uxlab, bir hissasida o'zga ishga mashg'ul bo'lurlar. Oqillar bir hissasida uxlab, ikki hissasida bedor bo'lurlar.

Erta turishni odat qil... Har kishikim quyosh chiqquncha uyquda bo'lsa, rizqi kam bo'lur...

«Qobusnoma»dan.



O'G'ILLAR

Qadimda bir otaning bor ekan uchta o'g'li. ismi Oy, Olov ekan, Kattasi Quyosh- cho'g'li!

Ularning alp qomati otani shodon etib, sinamoq bo'libdi u barin imtihon etib.

Kuch-quvvat sinovimas, odamiylik sinovi. Ovoz berib uzoqdan, chorlar ota uchchovin.

-Falokat, voy, falokat, shoshilingiz yordamga. Tez bo'ling, dam g'animat, mador odam odamga!

Quyosh chopib ketibdi, qizib, qizarib darrov. Orqasidan yetibdi o'ylanib turmay Olov.

Oy bo'lsa, o'zin asrab, husnin ko'z-ko'z qilar oy, -Daf qilar har baloni akalarim hoynahoy,

Deb sekin otlanibdi, o'zicha xayol surib. Ota ko'p shodlanibdi, ikki o'g'lini ko'rib.

Sudralib yetib kelgan Oyga esa boqmabdi. Halovatin o'ylagan Oy hammaga yoqmabdi.

Ota debdi: -Quyoshjon, Quyosh yigit bo'lursan. Uyg'ongancha erta tong, kunduz o'ynab kulursan.

Olovjonim, akangdan nari bo'lma hech qachon. Muhabbatdan, shafqatdan g'arib bo'lma hech qachon!


Umida ABDUAZIMOVA.



Oydinim, sen keta qol quyoshli kunlarimdan, Ko'nglingni xush eta qol, osuda tunlarimda...

Shundan beri fe'liga yarasha yashar ular. Mavjudotga mehrini Beminnat tashir ular.





Iftixor

-Bolaligimda bog'chaga o'zim ketardim. Sherzod akam qo'limga eski chelakchani tutqazib qo'yardi. Unda men zotli kuchugimiz Lessi uchun qolgan-qutgan ovqatlarni olib kelishim kerak edi. Rosa jahlim chiqardi. Ba'zan ataylab chelakchani qoldirib ketardim. Shunda akam meni rosa koyirdi. Men 5-sinfgacha rus maktabida, keyin o'zbek maktabida o'qidim. Xoreografiya bilim yurtida tahsil olib, Mudofaa Vazirligi qoshidagi «Qurolli kuchlar» ashula va raqs dastasida



ulardan juda minnatdorman.

- **Sahnaga kiyadigan liboslaringizni oyingiz Gulbahor opa tikarkanlar-da?**

-Oyijonim mening eng yaqin dugonam. Ularning maslahatlariga, yo'l-yo'riqlariga ishongan holda yashayman. Oyim doimo men bilan birga yuradilar. Menga qo'ng'iroq qiluvchilar bilan ham avvalo oyim gaplashadilar. Kiyimlarimga kelsak, barchasi



tomoshabinlar ham beixtiyor safimizga qo'shilib ketadi. Go'zallikdan so'zlab turuvchi raqs san'atini yanada rivojlanishini, raqqosalarga yaxshi sharoitlar yaratilishini, raqqosalar tanlovlari tez-tez uyushtirilishini istayman.

- **Buvilaringiz qarshi bo'lishmaganmi?**

- Qarshi bo'lishgan. Buvam va buvijonim rahmatli shunday deyishardi: «Sen xudodan so'raganingda osmonga qarama, chunki xudo

RAQS KUYNING ZABONI

faoliyat ko'rsata boshladim.

Hozir O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligiga qarashli «Shodlik» dastasi tarkibida ijod qilmoqdaman. Yoshligimda styuardessa, ya'ni havo kemasining kuzatuvchisi bo'lishni orzu qilardim. Yana qo'shiq kuylashni istardim. Biroq hech ham raqqosa bo'lamam, deb o'ylamagandim. Nargiza opam o'ta qobiliyatli raqqosa bo'lganligi bois, men ham unga havas qilib xoreografiyada o'qiy boshladim. Keyin opam turmushga chiqdi. Farzand tarbiyasi ta'tiliga chiqish arafasida meni o'zining o'rniga guruhga qo'shib qo'ydi. Ishonsangiz, u paytda raqs san'atining sirlarini umuman bilmas edim. Endi o'ylasam, u vaqtlarda ma'nosiz o'ynagan ekanman. Rost-da, axir kim biror kasb egasi bo'lib dunyoga kelibdi? Hunar yoki kasbning sirlaridan voqif bo'lish uchun yillab izlanish kerak-ku, suhbatdoshim yosh raqqosa Nodira Zaynitdinovaga ustozlari haqida savol berdim.

- Raqs san'atining buyuk darg'alari - Mukarrama Turg'unboyeva, Tamaraxonim va boshqa buyuk san'atkorlarning barchasini ustozim deb bilaman. Chunki ular yaratgan nozik xirom unsurlari mana, necha-necha yildirki, avlodlardan avlodga o'tib kelmoqda. Agar ular bo'lmaganda, raqs san'ati ham bo'lmas edi, deb o'ylayman. Nurxon Olimjonova, Gulchehra Sarvarova, Oydin Ubaydullayeva, Ziyoda Madrahimova, Karima Uzoqova, Qunduz Mirkarimova, Dilafruz Jabborova, Qodir Mo'minov, Roziya Karimovalar men uchun birinchi ustoz. Ular qo'limdan yetaklab, sahnaga olib chiqqanlar. Men

«Nihol» mukofotiga nomzod - 1982 yil

14 dekabrda tug'ilgan Nodira Zaynitdinova yaqinda -

Janubiy Koreyada bo'lib o'tgan festivalda ishtirok etib qaytdi.

O'zbek-koreys do'stlik markazi rahbarining tashabbusi bilan o'zbek milliy raqslaridan koreys xalqini bahramand qilish uchun bir oylik safarni uyushtirdi. 50 nafar qizlardan 6 nafar eng iste'dodlilari saralab olindi. Germaniya, Italiya, Bolgariya, Turkiya va Koreyada o'zbek milliy san'atini qoyilmaqom targ'ibot qilgan Nodira yana Koreyaga safarga o'tlanmoqda.

oyim va men i k k i m i z qo'limizdan chiqqan. Ular hamshiralikdan, tikuvchilikdan mohirlar. Yana Madaniyat institutini tamomlaganlar. Shuning uchun ham turli millat kostyumini tikayotganlarida o'sha millat tarixi va buguniga diqqatlarini qaratadilar. Qo'shiq va kuyning ma'nosini chaqib, ko'ylak tikadilar.

- **Doim birgamiz, deyapsiz, sizga ishonmaydilar mi?**

- Ana shu nozik masala, men uchun. Bilasizmi, raqqosa deganda ba'zi bir kimsalar yengiltak qizlarni ko'z oldiga keltiradilar. Aslida negadir hamma qizaloqlar raqqosalikni havas qiladi. Ota-ona esa bunga qat'iy qarshilik qiladi. To'g'ri, ehtimol ishonchni yo'qotganlar ham bordir, lekin men unday fikr noto'g'ri ekanini isbotlagim keladi. Raqs kuyning zaboni, qo'shiqning shakl-shamoyili. Agar raqssiz qo'shiq eshitsangiz, uchtasidan keyin zerikasiz. Bu, ayniqsa, konsert zallarida, bayramu tantanalarda yaqqol bilinadi. Raqs hamohang bo'lsa, o'tirgan

qalbingda,

viydoningda. Qalbing toza,

viydoning sof bo'lsa, amaling ham go'zal bo'ladi. Tergab turadigan insoning yoningda bo'lsa ham, yoningda bo'lmasa ham birdek yurgin», deyishardi.

- **Qanday fazilatlarni ardoqlaysiz?**

- Men samimiylikni yaxshi ko'raman. Yolg'on, fisqu-fasodni yomon ko'raman. Aybimni aytishsa, to'g'ri qabul qilib, darhol to'g'irlashga harakat qilaman. Bilasizmi, hatto ukamning ham gapiga quloq solaman. Fe'l-atvorim og'ir, vazmin. Ba'zan xushchaqchaqman. Noan'anaviy ranglarni yoqtiraman. Golland katta atirguli - mening gulim.

- **Orzuangiz?**

- O'z vaqtida ekilgan, parvarish-la o'sgan gul muattar bo'y taratganidek, farzand ham yutuqlari bilan ota-onani hursand qilishi kerak, deb o'ylayman. Mana, ota-onam mehnatlari va duolari ila ko'p horij davlatlarida bo'ldim, xalqimizning nazariga tushdim. Kichkinagina mehnatim el olqishiga tushgan ekan, o'sha olqishlarimning barchasini ota-onamga bag'ishlayman. Ularga eng samimiy dil izhorlarimni bildiraman. Raqqosalikni havas qilayotgan qizaloqlarga esa o'z orzulari yo'lida mehnat qilishlarini, andishali, ibo-hayoli raqqosa bo'lishlarini tilab qolaman.

Muharrama PIRMATOVA.

INDALLOSI - BILIM

Tengdoshingiz Jur'at Annayev Samarqand viloyatining Oqtosh shahridagi 55-o'rta maktabning 9-sinfida o'qiydi. Oilada yolg'iz o'g'il emasmi, barcha uy ishlarini, supurish-sidirish kabi yumushlarni ham o'zi uddalaydi. U yozgi ta'tilda mebel yasovchi usta Yusuf aka Usmonovga shogird tushib, bu kasbning nozik sirlarini ham qunt bilan o'rgandi.

- **Ko'proq qaysi jihozlarni yasadingiz. Birinchi maoshingizni nimaga sarfladingiz?**- deb so'rasam, xontaxta, divan, shkaf kabi turli ko'rinishdagi



jihozlarni yasaganini, ustoz

Yusuf akaning

uzoq vaqt o'ylanib

so'ng yangi ishni

katta maktab bo'lganini aytdi.

- Maoshimni albatta oyimga keltirib berganman,- dedi. Ularning ko'zlaridagi mehnat ko'rib, dunyoda mendan baxtli inson yo'q deb o'yladim. Nima olib berishni esa u kishining o'zlari hal qiladilar.

- **Sizni karate bilan shug'ullanadi, deyishadi.**

Hunardan unar

- Sportning karate turini jonu-dilimdan yaxshi ko'raman. Ikki yildan buyon muntazam shug'ullanib kelaman. Murabbiyimiz Shavkat Xasanovdan behad xursandman.

- Ona tili, adabiyot, tasviriy san'at, geometriya fanlarini sevib o'qiganimdanmi, hunar o'rganishim ham, sport bilan shug'ullanishim ham oson kechyapti.

HA, HAR ISHNING INDALLOSI- BILIM.

Jamila ERDONOVA.



KITOBALARIM HAM BOLALARIM

Quvonch

Aziz bolajonlar, kimki yoshligidan niyatini toza qilsa maqsadiga erishar ekan. Buni men o'z hayotimda ko'rdim. Yoshligimdan doimo izlanishda bo'lishni, yaxshilik, ezgulik yo'lida yonib yashashni orzu qilganman. Men ilmlar ziyosi, ummoni bo'lmish kitoblarni sevganman. Ne baxtki, o'rta maktabni bitirib nashriyotda ishlab, Toshkent Davlat Universitetining jurnalistika fakultetiga, kechki bo'limga o'qishga kirdim. O'qib bilim oshirsam, ish jarayonida kitob nashr etilishi sirlarini o'rgandim. Ayniqsa, jahon adabiyoti tarjima asarlariga qiziqishim ortib, musahhih bo'lib ishlayotganimdayoq jahon adabiyotidan kichik-kichik ertak va hikoyalar tarjima qila boshladim. Esimda, kech soat 11 larda o'qishdan uyga qaytib, tungi soat 2-3 largacha tarjima ishlari bilan shug'ullanardim. Mehnat tajribam o'sib, qissa va romanlarni o'zbek tiliga o'girishga o'tdim. Bu borada ustozlarimning o'giti katta bo'lsa, mehnatim, uyqusiz o'tgan kechalarim imkon yaratdi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, Respublika nashriyotlarida yangi nashrdan chiqqan kitoblarni televideniye, radio va gazetalarda targ'ib etishni orzulab qoldim. Chunki ko'nglimga yoqadigan, rost gaplarni yozadigan kitoblar chiqarish boshlanib ketgandi-da. Uni birov bilib birov

bilmaydi. Buning uchun tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish kerak edi. Qolaversa, Istiqlol jurnalistlar, noshirlarga radio-televideniya chiqib bemaol ko'rsatuv va eshittirishlarni olib borish imkonini ham berdi. Chindan ham kitob targ'iboti

Sening bo'ying yetib, o'zga xonadonga kelin bo'lib tushishingni onaginang orziqib kutayotir. O'ziga atab olgan matolarini ham senga deb sandiqqa solib sep yig'adi u. Otang-chi, uning ham orzu-havaslari bir olam.

Sengina baxtingni topib, o'zga xonadonga kelin bo'lib yayrab- yashnab, yuz- ko'zingda la, bir umrlik bo'lib kirib

nurlarga bilan inoq bo'lsang, bas ularga.

Qizgina, mana sen o'zing dil bog'lagan yigitga turmushga chiqayapsan. Sendan baxtli inson yo'q dunyoda. Shu tobda olam ko'zingga o'zgacha ko'rinayapti. Yaqin kunlarda to'ying bo'ladi...

Nihoyat ota-onangning orzulari ushaladi. Lekin mas'uliyat turganini his qizgina? O'z uyiga yor kuyovni ayab-asrash ham Uning qaddini dol tutib ishon.

Xalqdagi kelin izli- qutli keldi, poyqadami yoqdi, degan gaplar bejiz emas.

Bir umrlik kelin bo'lib tushgan joyingda shirin zabon, xushfe'l, xushro'y, kattalarni izzatda, kichiklarni hurmatda e'zozlasang, sen baxtli, yaxshi kelin nomini olasan. Sevgan yoringni ham ayagan bo'lasan, unga rahmatlar yog'dirasan. Axir eng avvalo kuyovning ota-onasi, jigarlarining izzatini joyiga qo'yish qon-qonimizga singib ketgan.

Endi ziyarak bo'lmog'ing darkor, qizgina. Mehningni ko'ngil qo'ygan yoringgagina emas, yoringning ota-onasi-yu jigarlariga ham bo'lishmog'ing lozim. Ana shunda sen yoringni chinakam suvgan, avaylagan bo'lasan. «Ota-ona rozi, xudo rozi», deyдилarku axir.

ERTAGA BEKA BO'LASIZ

Qizlar o'qisin

oldingda ulkan etayapsanmi, qilib olib kelgan senginaning qo'lingda. yurishiga ham sen sababchisan. Ha, ha,



ishiga berilib ketdim. Shanba, yakshanba kunlarida ham radio va televideniye borardim. Kitobxonlarga bebaho ziyo haqida ma'lumotlar berib, ularni kitobxonlikka chorlardim.

Aziz bolajonlarim! Yoshlikdanoq yaxshi orzu- umidlar bilan yashang. Ona xalq, mo'tabar Vatanga tekkan naf besamar qolmaydi. Men o'z mehnatlarimning samarasini ko'rdim. Mustaqilligimizning 12 yilligi nishonlanayotgan kunlarda men «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlandim. Prezidentimiz aytganlaridek, elim, yurtim deb yonib yashasangiz el -yurt ham sizni ardoqlaydi.

Kitoblar ham mening bolalarim. Ularni siz o'quvchilarga ham targ'ib qilib, ilm ziyosidan xabardor etishdan o'zimni baxtiyor his qilaman.

Nazira JO'RAYEVA,
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-
matbaa ijodiy uyi Bosh muharriri,
«Do'stlik» ordeni sohibasi.

Respublikada xizmat ko'rsatgan sport ustasi Nurxon Nafasov yetakchilik qilayotgan bu uyushma qisqa muddatda katta yutuqlarga erishdi. Afinada bo'lib

Gretsiyada bo'lib o'tgan Jahon kubogida ham g'olib bo'lib, oltin medalni qo'lga kiritdi.

QATNASHDA QUYOSHI

o'tgan Jahon kubogi baxslari natijasi ham buni tasdiqlab turibdi. 30 ta mamlakatdan 700 nafar sportchi qatnashgan bellashuvda o'zbekistonlik karatechilar AQSH, Buyuk

Britaniya, Gretsiya, Italiya, Yangi Zelandiya, Avstraliya, Shotlandiya kabi mamlakatlarni

dog'da qoldirib, kuchli to'rtlikdan o'rin oldi. Rossiya, Misr, Vyetnamdan keyin to'rtinchi o'rinni egalladi.

-Biz bolalarimizga sport kiyimi sifatida qadimiy libos - oq yaktakni tanladik, deydi yetakchi. Sportchilar bir - biridan belbog'i bilan ajralib turadi. Oq, sariq, to'q sariq, yashil, ko'k, to'q jigarrang va qora ranglar belbog' egalarining mahorati darajasini ko'rsatadi. Kurashchi ana shu yetti xil belbog'ga ega bo'lib, mahoratning yetti dovonidan o'tgandan keyin o'z ishining ustasi bo'ladi. Qora belbog' yetuklik belgisi. Yetti raqami hosiyatli. Jahon chempionatidan 13 ta - oltin, 5 ta kumush va 5 ta bronza medal bilan qaytishga muvassar bo'ldik.

Nodir Xo'jayev - endigina 14 bahrni qarshiladi. Maktabning 9-sinfida o'qiydigan qarshilik bu yigitcha allaqachon o'zini namoyon qila oldi. U 9 yoshida o'z tengdoshlari orasida mamlakatimizda birinchi bor g'olib bo'ldi. 1999 yili Vengriyada, 2000 yil Malayziyada, 2003 yili AQSHda 1 o'rinni oldi. Yaqinda

- Chempionat arafasida hamisha Nurxon akaning o'zlari ham mashg'ulot o'tkazadilar, - deydi Nodir. - Tinimsiz mehnatimizni Alloh qadrladi. Ruhimiz tetik, kayfiyatimiz zo'r. Afinada qo'lga kiritgan bu g'alabamni mamlakatimiz mustaqilligining 12 yilligiga bag'ishlayman.


Sanjar Mirzomammedov - bo'jxona kolleji talabasi. U karate mashg'ulotlariga kechroq qatnasha boshladi. Lekin tezda yutuqqa erishdi. Hozir qora belbog' sohibi. O'tgan yili AQSHdagi xalqaro bellashuvda kumush medalini qo'lga kiritdi. Afina bellashuvda esa mamlakat jamoasi tarkibida qatnashib, bronza medali sohibi bo'ldi.

-Sanjarbek, siz 17 yoshingizda chempion bo'ldingiz, g'oliblik har bir yigitning orzusi.

-Ha, nomim tilga olinib, O'zbekiston bayrog'i yuksaklarga ko'tarilganida ko'zim yoshga to'ldi. Taqdirim Vatan taqdiri bilan bog'lanib ketganligini aniq his etdim. Yurtboshimizning chet elga chiqib O'zbekistonimizning dovruq'ini dunyo bo'ylab

taratishga sharoit yarattib berganidan xursand bo'ldim.

-Har bir bola sog'lom bo'lishi uchun avvalo sport bilan muntazam shug'ullanishi kerak. Bundan tashqari, turli sport tili ichimliklarni totib



O'zbekiston Respublikasi Karate Milliy Federatsiyasi mustaqillik sharofati bilan tashkil etildi. Hozir jahon va Osiyo Karate Federatsiyalarning teng huquqli a'zosi. Uni 57 mamlakatning shu yo'nalishdagi tashkilotlari va Xalqaro olimpiya qo'mitasi tan olgan. Uyushmaning jahondagi boshqa shunday tizimlardan 7-8 yosh bo'lgan bolalar ko'pligi bilan ajralib turadi.

ko'rmasligi, tamaki chekmasligi lozim. Bilimini, dunyoqarashini muntazam oshirib borishi kerak.


- Ha, to'g'ri aytasiz, hozir Boston va Fransiyada bo'ladigan Jahon chempionatiga tayyorlanayapmiz. Unda yurt bayrog'ini yuqori ko'tarish uchun siz aytgan hislatlarga ega bo'lish kerak.

Dilshod Mahkamov - bu yilgi mamlakat chempionatida birinchi o'rinni qo'lga kiritib o'smirlar orasida Respublika g'olibi bo'lgandi. Afinada esa bronza medalini olishga erishdi.

-Dilshod hali yosh bo'lsa-da juda iste'dodli, tirishqoq va intiluvchan yigitcha. Men uning imkoniyatlarini yuqori baholayman, Dilshod dastlabki saboqni mendan olgan bo'lsa-da, keyingi yutuqlarida o'zining xizmatlari katta, deb bilaman - deydi ustoz Nurxon Nafasov.

Balki Nurxon akaning gapida jon bordir. Ammo ilk saboqlar, ilk qadam, ilk mashqlar hech unutilmaydi. Keyingi izlanishlar dastlabki bilim va tajribalarga asoslanadi. Hayotini sportga payvand etgan, baxtini, omadini dadil sinab ko'rayotgan intiluvchan bu sport ishqibozlariga havasim keladi. Kelajakda ular mashhur karatechi bo'lsa bo'lmasa, ona yurtga kamarbasta bir farzand bo'lishi aniq.

Javlon SA'DULLAYEV,



GULLAR SHAHRIM GULLAR TOBORA

Dadam ta'til kunlarida Andijonga boramiz, bobongning bog'ini parvarish qilib, meva-chevalariga to'yib kelamiz deganlarida unchalik quvonmagandim. Ta'tilda Toshkentdagi favvoralar, ko'l va basseynlarda cho'milishni o'z u



qilib kutgandim-da. Ammo Baliqchiga kelgan kunimizda, nega kelishni uncha xohlamaganim uchun o'zimga hayron bo'ldim. Axir o'yinning mazasi shu yerda ekan-ku. Somon sochilgan ko'chalarda sharqirab oqib turgan suvlarda cho'milaverib, naq baliq bo'lib ketdim. Qishloqda juda ko'p

Ona shahrim Andijonimni gullarga qiyoslasam kam. Chunki mustaqillik yillarida shahrim ko'rki yanada chiroyga burkanyapti. Ko'chalari kengaytirilib, tekis asfaltlangan, zamonaviy binolar qad ko'targan. Biz kabi o'qu uchun yangi jihozlangan akademik litseylar, kollejlarning xizmatiga: Bunday katta ishlarga biz ham chetda qarab turmay, yo'l chetlarig xildagi gullarni ekib, daraxtlarni oqlab chiqdik. Tuprog'iga cho'p qat gullaydigan bu ona zaminimizning har qarichidan unumli foydalanish harakat qilamiz. Hayron bo'layotgandirsiz, yo'l atrofidagi gullarni sug' muammo emasmikin, deb. Yo'q, muammo emas. Asosan, yo'llar chetida ariqlar, tutzorlar mavjud. Aytaylik, ariqlar yo'ldan pastda joylashgan bo'lsa, maxsus katta siternada suv keltirib, o'shanda gullarga suv quyamiz. Ular qiyg'os ochilib, urug'i pishganda esa, barchamiz urug'larini terib chiqamiz-da, kelasi yil uchun asrab qo'yamiz. Tasavvur qilyapsizmi, gul urug'lari, ko'chatlari yildan-yilga qanchalik ko'payayotganini? Ana shunaqa! «Anjan»cha uslubimiz yurtimizga tashrif buyurayotgan mehmonlarga ham ma'qul kelib, ular ham diyorlarini gullarga burkamoqchi.

Fazliddin QURBONOV,
Andijon viloyati, Bo'z tumanidagi 13-litseyning
6-sinf o'quvchisi.



o'z gacha olam. Hamma bir-birini taniydi, hamma bir-biriga mehribon. Ta'tilim tez tugab qolayotganiga, ular bilan yana bir yilga hayrlashayotganimga achindim. Sizni sog'inaman, andijonlik do'stlarim. Tovuq kataklari oldida soatlab o'tirganim, kaparlarning parvozidan quvonib, ular bilan raqsga tushib ketganim, qo'ylarga qaraganim, mollarni dalaga



dugonalar orttirdim. Ular har kuni yangi o'yin o'ylab topishardi. Menga eng qizig'i, ammamning o'g'li Farhod akam boqqan qushlar bo'ldi. Ayt sam

ishonmaysiz, Farhod tog'am hatto bulbul ham boqarkanlar. O'zlari to'qqizinch sinfda o'qisalar ham, shu qadar ko'p

jonivorlar haqida rivoyatlar biladilarki,

QUSHLAR BILAN TILLASHAR TOG'AM

ularni eshitib, ishqilib eslab qolayin-da, deb o'ylanaman. O'zim ham mahallada, Toshkent viloyatining TASHGRESS qo'rg'onida turaman. Ammo, Andijondagi bobomning Qo'shariq dahasi butunlay

haydaganim, eng asosiysi, biri-biridan ochiq qo'l, ochiqdil do'stu dugonalar orttirganim butun umr ongimda muhrlanib qoladi.

Gulruh YODGOROVA,
TOSH DAI qoshidagi Respublika
gimnaziyasi o'quvchisi.

«O'G'LIMNING DARDINI MENGA BER»

«... Humoyun qattiq og'rib qoladi va uni og'ir ahvolda Agraga olib kelishadi. Tabiblar kecha- kunduz tirishib, kasallikni aniqlashga, davolashga urinadilar. Ammo bari zoye ketadi. Bobur o'g'lini tezroq oyoqqa turishini istaydi. Biroq uning ahvoli battar og'irlashadi: ilohiy bir mo'jiza yuz bermas ekan, falokat yuz berishini ko'rib qoladi. Shunda Bobur Allohning dargohiga sig'inib, o'g'li uchun jonini qurbon etishga qaror qiladi». Gulbadan yozadi:



- Saroyning necha ulamoyi kiromlari podsho hazratlarini bu qarordan qaytishga undadilar, lekin dadam unamadilar. Necha bor oqilu donolar buning o'rniga mo'l-ko'l oltin kumush sadaqa etishni taklif qildilar.

Beklardan biri dunyoda eng qimmatbaho gavhar - Ko'hi Nurni tasadduq etishni maslahat berdi. Biroq shavkatli otam rozi bo'lmadilar. «Dunyoda o'g'limga teng keladigan gavhar bormu?». Shunday deb so'zlarida qattiq turib oldilar. Ko'ngillari ul hazratni oliy qurbonliqqa undar edi. Yig'lab, ko'z yoshi to'kayotgan saroy xonimlari orasidan o'tib, Muhammad Humoyun yotgan xonaga kirdilar. Akam to'shakda og'ir isitmada kuyib, holdan toyib yotar edi. Otam uning boshiga borib, qo'llarini duoga ochdilar. So'ng vazmin qadam tashlab, uning atrofidan uch karra aylandilar. Takror- takror dedilarkim: «Yo, Allohi Karim, uning dardini menga bergil... Unga kelgan balo menga ursin...» So'ng hazratning yig'i

aralash shu so'zlari eshitildi: «Bergan sadaqam qabul bo'ldi... Niyatimga yetdim... Murodimga yetishdim... Allohi Karim tilagimni qabul ayladi...»

Xona ichida yuz berayotgan voqea chindan ham yuraklarni larzaga solar



BOBUR IZTIROBI

Andijondan qovun keldi, Bag'rim kabi tilib so'ydim. Yuragimday o'rtasidan Teng ikkiga bo'lib qo'ydim. Yo rab, yurtda yoz bo'libdi, Hasrat bilan kulib qo'ydim. Qovunni yeb, kosasiga Ko'z yoshimni quyib qo'ydim... Buncha menga kulfat berding, Falak, qasding nima edi?! Qovunni men emas, qovun Majruh qalbim tilib yedi. Andijondan qovun keldi, Bag'rim kabi tilib so'ydim. Ko'zga surtib po'chog'ini, Saroyimga ilib qo'ydim.

Muhammad SIDDIQ,
Andijon viloyati, Bo'z tumani.


edi. Ranglari siniqqan, eshushini yo'qotayozgan Bobur tangriga yalinib yolvorardi. U o'g'limni qo'yib, uning o'rniga mening jonimni ol, deb zorlanarkan, shunga ishonch hosil qildiki, o'zining ahvoli yomonlashib, o'g'lining ahvoli yaxshilanardi. Chindan ham o'lim to'shagida yotgan shahzoda ko'zini ochdi. Boburning ahvoli esa og'irlashgandan og'irlashaverdi. Oradan uch kun o'tgach, 1530 yilning 26 dekabr, dushanba kuni Bobur vafot etdi.

Hind olimi Muni La'lning «Bobur» nomli asaridan olindi.

Toshkent- yangilanayotgan va jadal rivojlanayotgan shahar. Uning marakazida joylashgan «Temuriylar tarixi davlat muzeyi» mustaqilligimizning 5 yilligi, ulug' bobokalonimiz Amir Temur tavalludining 660 yilligi nishonlangan yili, ya'ni 1996 yil 18 oktyabrda ochilgan. Muzey o'rta asrlar me'morchiligi qonun-qoidalari an'alaridan foydalanilgan holda qurilsa-da, zamonamiz ruhiga mos tarzda yaratilgan.

Imoratning tashqi devori sirkor sopol tangachalar bilan bezatilgan va ularga ushbu so'zlar yozilgan: **Itoat,**

adolat, zarofat, ma'rifat, diyonat, oqibat, marhamat, qadriyat, sadoqat, matonat, muruvvat, shijoat, mashvarat. Ushbu so'zlarni o'qib, Amir Temur bobomizning amali, hayot yo'lini yaqqol anglash mumkin.



M u z e y ekspozitsiyalari haqida muzey ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Lobar Yo'ldosheva bizga shunday ma'lumot berdilar.

- **M u z e y** ekspozitsiyasini boyitishda O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning xizmatlari beqiyosdir. Ularning maxsus qarorlari va buyruqlari asosida

Respublikamiz (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon kabi) shaharlaridagi yirik muzeylardan temuriylar tarixiga oid noyob ekspozitsiyalar olib berildi. Shuningdek, 1996 yil aprelda Parijda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ko'rgazmadagi ekspozitsiyalar muzeyga o'tkazildi.

Ekspozitsiyadan arxeologiya, etnografiya,

numizmatika yodgorliklari, qo'lyozmalar, tasviriy san'at namunalari joy olgan.

Moziydan sado

Hattoki, shahrimiz maktab o'quvchilari ham 7 yil mobaynida muzeyga o'z qo'llari bilan yaratgan ishlarini taqdim qilganlar. Masalan, 319-maktab o'quvchisi Go'zal Nurmuhamedova qo'lda tikkan kashtasini «Buyuk siymolar» deb nomlagan. Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur rasmlarini juda ham mohirlik bilan tikkan-ki, ko'rib o'zingiz qoyil qolasiz. Yana ko'rgazmalar orasida 118-maktab o'quvchisi Gulnur Shukurovaning «Amir Temur jang maydonida» nomli portretini, Akmal Ikromov tumanidan Aleksandr Mazurning yog'ochga o'yib ishlangan «Karvon» qo'l mehnatini,

Chilonzor tumanidagi 163-maktab o'quvchisi Reutova Lizaning «Buyuk bobomiz» nomli portretini ko'rishingiz mumkin.

Ekspozitsiyadagi uchburchakli javonda toshga bitilgan yozuvning fotosurati berilgan. 2 tonnali bu ulkan harsang tosh 1951 yilda Qozog'istonning Ulug'tog' degan joyidan topilgan bo'lib, tosh bugungi kunda Sankt-Peterburg Ermitajida saqlanadi.

Zalning markaziga esa Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasi maketi qo'yilgan. Maketda



«Mustaqillik o'zbek xalqiga o'z yurtida qadriyatini, bo'y-bastini, o'z madaniyati va an'alarini, dinu e'tiqodini, tili va ma'naviyatini qayta tiklab olishga, milliy g'urur va milliy tafakkur, vatanga muhabbat tuyg'ularini kamol toptirishga zamin tug'dirdi».

I.A.KARIMOV.

maqbaraning XV asrdagi ko'rinishi aks etgan.

M u z e y n i tanishtirib



bo'lganlaridan so'ng:

- 2004 yilda Amir Temurning 668 yilligi nishonlanadi. Shu sababdan «Tong yulduzi» gazetasi «Temuriylar tarixi davlat muzeyi» bilan hamkorlikda tanlov e'lon qilmoqchimiz. Tanlov sentabr oyidan boshlanib, unda o'quvchilar «Barhayot siymo» nomli maqolalari bilan qatnashishlari mumkin. Maqolalar Amir Temur davri voqealarini o'z ichiga olgan holda yoziladi. G'oliblarga esa maxsus sovg'alarimiz bor,-dedilar.

Tahririyatdan: Aziz o'quvchilar. Siz ham «Barhayot siymo» tanlovida qatnashing va sovg'aga ega bo'ling. Buning uchun o'z gazetangizning har bir sonini o'qib borishni unutmang.

Gulyuz BAHODIR qizi.

AMERIKACHA SALOM

Men shu kunlarda Amerikaning Kaliforniya shtatidagi Sacramento shahrida ingliz tilidan saboq olish bilan birga avtomobil boshqarishni o'rganayapman.

Akam ham ingliz tilini o'rganmoqda. Amerikada yashab, ingliz tilini endi o'rganayotgan ekan-da, deb

o'ylayotgandirsiz. To'g'ri, men inglizchani endi o'rganayapman, chunki dadam bu yerga muhandislik bo'yicha malaka oshirishga keldilaru, ko'p o'tmay bizni ham chaqirib oldilar. Turmush sharoitlarimiz yaxshi, turli millat odamlari orasida yashash juda qiziqarli. Ayniqsa,

ularning salomlashishiga alohida e'tibor qilaman. Biri qo'llarini juftlab so'rashsa, boshqasi oyoqlarini chalishtirib so'rashadimi-yey.

Ammo hamma - hammasi sog'liq, salomatlik tilashni, bu olamda erkin yashash kerakligini ta'kidlab turishadi.

Hurmatli «Tong yulduzi»!

Toshkentdaligimda sening huzuringga tez-tez borib turardim.

Chunki o'zim rus tilida saboq olib, ruscha chiqadigan «Klass» gazetasining muxbiri bo'lsam-da, sening jamoangdagilar, Feruza opalar, Muharrama, Jamila, Gulyuz opalarning tezkorligi, bolalar tilida

so'zlab, bolalar diliga oson yo'l topishini yaxshi ko'rib qolgandim.

Har tong kompyuter xonasida ular bilan ochiq yuzda so'rashishni odat qilgandik. Endi esa amerikacha salom yo'llashni lozim

topdim. Qo'limni ko'ksimga qo'yib emas, boshimga ko'tarib «Hello», deyman. Bu niyatimda tezroq ko'rishaylik, ona yurtimni juda tez sog'inib qoldim, degan ifodalar mujassam.

Ilk muchal to'ying muborak, Ona yurtim! Sening dovrug'ing hatto amerikada ham o'ziga xos tantanavor ekan. Bu tantana, bu xurram bayramlar abadul-abad biz bilan bo'lsin!

Shaxzoda MUSAXONOVA.



Arabcha salom

Ginnesning rekordlar kitobida boshqa sohalarga oid rekordlar orasida dunyodagi eng boy oila Dyumonlar oilasi to'g'risidagi ma'lumotni uchratishimiz

Tadbirkorga qo'yiladigan talab moddiy boyliklar yaratuvchi boshqa odamlarga qo'yiladigan talablarga qaraganda ancha kengdir. Masalan, siz duradgorsiz deysiz. Siz eshik, deraza va

kengligi;
-doimo
o'zgarib
turadigan
sharoitda

Iqtisoddan saboqlar

KIM TADBIRKOR BO'LA OLADI?

mumkin. Unda Amerikaning «kimyo qirol» tomonidan asos solingan bu oilaning nazoratidagi mulk 150 mlrd. dollarni tashkil qiladi, deb keltirilgan.

Milliard dollarning qay darajada ko'p pul ekanligini tasavvur qilish juda ham qiyin. Amerikadagi ishchi shunday boylikka erisha oladimi? Hisob-kitoblarga qaraganda, amerikalik ishchi bir milliard dollar pul topish uchun 3 million yil yashashi kerak bo'lar ekan.

Unda bu darajadagi ulkan daromadlarga qanday qilib erishiladi? Bu savolga javob berish uchun tadbirkorlik (biznes) degan tushuncha bilan yaqindan tanishishimiz kerak.

Tadbirkor - bu ishlab chiqarish va tijoratning barcha zarur omillaridan boylik yaratish uchun foydalanadigan odamdir. Bu ancha keng ta'rifga yaratuvchilikning ko'pgina sohalari bilan shug'ullanuvchi odamlar to'g'ri keladi.

boshqa anjomlar yasashga ustasi farang bo'lishingiz mumkin. Lekin agar siz tadbirkorlik bilan shug'ullanishni boshlasangiz, siz bu anjomlarni ishlab chiqarishdan tashqari:

- oldi-sotdi;
- marketing;
- boshqarish;
- hisob-kitob;
- moliyalashtirish;
- kadrlar ishi bilan ham shug'ullanishingizga to'g'ri keladi.
- Sizga buning uchun:
- ulkan fidokorlik;
- mehnatsevarlik;
- chuqur fikrlash va dunyoqarashning

ishlash uchun moslashuvchanlik;
-dastlabki paytlarda kamroq e'tibor berishingizga to'g'ri keladigan oilangizning sizni qo'llab-quvvatlashi;
-sizni va sizning oilangizni, dastlabki tadbirkorligingizdan tushadigan daromadlaringiz kamroq bo'lgan davrda ta'minlab turish uchun zarur bo'lgan ma'lum miqdordagi mablag'lar;
-tavakkal qilib ishlash va h.k. shunga o'xshagan talablarga javob berish kerak bo'ladi.

Bu kabi fazilatlar ega tadbirkorlar, albatta, katta-katta ishlar qilishga qodir. Tadbirkor shu xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi shart. Agarda sizda bu fazilatlarining ba'zilar yo'q bo'lsa xafa bo'lmang. Umuman, ba'zi odamlar o'z hayotida hech narsani o'zgartirishni xohlamaydi, ba'zilarini javobgarlik mas'uliyati qo'rqitadi, yana boshqalar esa bo'ysunish va bajarishga moyildirlar...

Ergashvoy SARIQOV.



Yosh iqtisodchilar diqqatiga!
Gazetamizning keyingi sonlaridan boshlab «Iqtisoddan saboqlar» tanlovining yangi turi o'z ishini boshlaydi. Tadbirkor, olim Ergashvoy Sariqovning qimmatbaho sovg'alarini olaman deganlar o'z gazetangiz «Tong yulduzi»ning hamma sonini olishga shoshiling! Chunki javoblar gazetada e'lon qilingan varaqaga joylab jo'natiladi.

NIMA UCHUN?

Nima uchun sobiq Ittifoqda xonadonlar ichiga yaxshi qaralgani holda, uylarning tashqi kurinishi haqida hech kim qayg'urmagan?

Nima uchun 1992 yildan boshlab hamdo'stlik mamlakatlarida kartoshka ekish ko'payib ketdi?

ABORIGENLAR VA KELGINDILAR

Uch kishi sud oldida hozir bo'lishdi. Ularning har biri yoki aborigen, yoki kelgindi bo'lishi mumkin. Sudda aborigenlarning faqat rost, kelgindilarning faqat yolg'on gapirishi ma'lum. Lekin kimning- kimligi no'malum. Sudya-birinchi sudlanuvchidan kim ekanligini so'ragan edi, uning gapiga tushunmadi. Shuning uchun oldin ikkinchi sudlanuvchidan, so'ng uchinchiidan birinchi sudlanuvchining nima deganligini tushuntirib berishni so'radi. Shunda ikkinchi sudlanuvchi, birinchi sudlanuvchini o'zini «aborigenman» deb aytganini bildirdi. Uchinchi sudlanuvchi esa birinchi sudlanuvchi o'zini «kelgindiman», deyayotganligini aytdi. Ikkinchi va uchinchi sudlanuvchilarning kim ekanligini aniqlang.

Germaniyada har kuni roppa-rosa soat 18.30 da hamma do'konlar yopiladi. Shanba kunlari bundan ham ertaroq 13.00 da berkitiladi. Bu xaridorlarga noqulaylik tug'diradi. Hamma do'konlarning bir vaqtda berkitilish holatini o'zgartirishga bo'lgan urinishlar zoye ketdi. Bunday mantiqsizlikka o'xshab ko'ringan holatni qanday tushintirish mumkin: axir do'konlarning uzoq muddat, masalan kechayu-kunduz ochiq bo'lishi xaridorga ham, sotuvchiga ham foydali emasmi?

Amerika Qo'shma Shtatlarida import qilinayotgan tovarlar uchun bojni kamaytirish hatto boshqa mamlakatlar bunday qilishni xohlamasalar ham foydali bo'lishi mumkin.

Hamdo'stlik mamlakatlarining ko'plab shaharlarida jamoat transporti bepul bo'ldi. Nima uchun yo'lovchilar soni amalda o'zgarmadi? «Bepul» jamoat transportiga kim pul to'laydi?

UCH DONISHMAND

Uch donishmand- Ali donish, Vali donish va Soli donish «Eng donishmand menman», - deb o'zaro tortishib qolishdi. Ularning bu bahsiga 4- donishmand qo'shilib, shunday dedi: «Ey, aqlu-zakovat sohiblari! Quloq soling, bahslaringizni men hal qilib beray», deb donishmandlarga 3 ta oq va 2 ta qora qalpoqni ko'rsatdi-da, ulardan ko'zlarini yumib turishni iltimos qildi va 3 ta oq qalpoqni ularning boshlariga kiygizib, qolgan 2 qora qalpoqni berkitib qo'ydi. Shundan so'ng, donishmandlardan ko'zlarini ochib o'z boshlaridagi qalpoqning rangini aytib berishlarini so'radi. Donishmandlar bir-birining boshiga tikilib, o'yna to'ldirdi. Oxiri Soli donish: «Mening boshimdagi oq qalpoq», deb qolgan donishmandlarni lol qoldirdi. Aytgichi, Soli donish qanday qilib to'g'ri javobni topa olgan?

Ona yurt - olin beshing

TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARA-KATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

Bosh muharrir
Umida
ABDUAZIMOVA TAHRIR HAY'ATI:
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama
MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma taboq.
«O'zbekiston» nashriyoti matbaa bazasida chop etildi.
Adadi - 11408
Korxona manzili: 700129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Buyurtma № 1 - 01
Gazetani Muharrama PIRMATOVA sahifaladi.
Navbatchi: Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137
Manzirimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75